

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA SHAXSIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MAKTAB VA OILA O‘RTASIDAGI HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Norov Sadriddin

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Samarqand filiali 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda shaxsiy qadriyatlarni shakllantirishda maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlikning pedagogik, psixologik va metodik jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilingan. Shaxsiy qadriyatlar tushunchasining mazmun-mohiyati ochib berilgan, hamkorlikni rivojlantirish shakli va metodlari tizimlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, shaxsiy qadriyatlar, oila, maktab, pedagogik hamkorlik.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING SCHOOL–FAMILY COOPERATION IN FORMING PERSONAL VALUES IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. This article provides a scientific analysis of the pedagogical, psychological, and methodological aspects of cooperation between school and family in forming personal values among primary school students. The essence and content of the concept of personal values are revealed, and the forms and methods of developing school–family cooperation are systematized.

Keywords: primary education, personal values, family, school, pedagogical cooperation.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ ШКОЛОЙ И СЕМЬЁЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье на научной основе анализируются педагогические, психологические и методические аспекты сотрудничества школы и семьи в формировании личностных ценностей у учащихся начальных классов. Раскрывается сущность и содержание понятия личностных ценностей, систематизируются формы и методы развития педагогического взаимодействия.

Ключевые слова: начальное образование, личностные ценности, семья, школа, педагогическое сотрудничество.

Kirish

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi shaxs rivojlanishining eng muhim va mas‘uliyatli davri hisoblanadi. Aynan ushbu davrda o‘quvchilarda axloqiy qarashlar, ijtimoiy

xulq-atvor me'yorlari, hayotiy qadriyatlar va shaxsiy pozitsiya shakllana boshlaydi. Shaxsiy qadriyatlarning barqarorligi kelgusida bolaning jamiyatdagi ijtimoiy moslashuvi, fuqarolik mas'uliyati va ma'naviy yetukligini belgilaydi.

Mazkur jarayonda maktab va oila shaxs tarbiyasining yetakchi institutlari sifatida o'zaro uyg'un faoliyat olib borishi zarur. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham ta'lim-tarbiya jarayonida ota-onalar va ta'lim muassasalari hamkorligiga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bois, boshlang'ich ta'limda shaxsiy qadriyatlarni shakllantirishda maktab va oila hamkorligini ilmiy-metodik asosda tashkil etish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Asosiy qism

Shaxsiy qadriyatlar tushunchasi va ularning pedagogik ahamiyati

Shaxsiy qadriyatlar shaxs tomonidan ongli ravishda anglab yetilgan va qabul qilingan axloqiy, ijtimoiy hamda ma'naviy mezonlar majmuasidir. Ular insonning xulq-atvori va jamiyatdagi faoliyatini belgilaydi. Pedagogik jihatdan ular tarbiya jarayonining muhim natijasi hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim davri shaxsiy qadriyatlarning shakllanishida hal qiluvchi bosqich bo'lib, bu davrda o'zlashtirilgan qadriyatlar o'quvchilarning keyingi hayotiy va ta'limiy faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonda halollik, adolat, mehnatsevarlik, mas'uliyat, hurmat va bag'rikenglik kabi qadriyatlar ijtimoiy munosabatlarning sog'lom rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, vatanparvarlik va milliy g'urur o'quvchilarda fuqarolik ongini shakllantirsa, jamoaviy faoliyat orqali rivojlantiriladigan hamkorlik va muloqot ko'nikmalari ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. Shaxsiy qadriyatlar nazariya va amaliyot uyg'unligi, maktab va oila hamkorligi asosida samarali shakllanadi.

Maktab va oila hamkorligining mazmuni va shakllari

Maktab va oila hamkorligi ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo'lib, bolaning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va axloqiy me'yorlarni egallashida muhim omil hisoblanadi. Ushbu hamkorlik tarbiyaviy ta'sirlarning birligi, maktab va oila talablari uyg'unligi hamda pedagoglar va ota-onalarning o'zaro mas'uliyatli munosabatiga asoslanadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida mazkur hamkorlik ayniqsa dolzarb bo'lib, aynan shu davrda bola shaxsining asosiy axloqiy va ijtimoiy fazilatlar shakllanadi. Maktabdagi tarbiyaviy ta'sirlar oiladagi munosabatlar bilan uyg'unlashganda, o'quvchilarda barqaror xulq-atvor va ijtimoiy mas'uliyat rivojlanadi.

Maktab va oila hamkorligi ota-onalar yig'ilishlari, pedagogik maslahatlar, seminar-treninglar, ochiq darslar, tarbiyaviy tadbirlar hamda individual muloqotlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu shakllar ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish, farzand tarbiyasiga ongli yondashuvni ta'minlash va pedagoglar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Hamkorlikni rivojlantirish metodikasi

Maktab va oila hamkorligini rivojlantirish metodikasi pedagogik jarayonni maqsadli, tizimli va uzluksiz tashkil etishga asoslanib, o'quvchilarda shaxsiy

qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Ushbu jarayon pedagoglar va otalarning o'zaro hamkorligi, faol ishtiroki hamda mas'uliyatli muloqotiga tayanadi.

Tarbiyaviy suhbatlar orqali o'quvchilarda axloqiy ong, ijtimoiy mas'uliyat va ijobiy xulq-atvor me'yorlari shakllantiriladi. Rolli va didaktik o'yinlar bolalarning ijtimoiy vaziyatlarni anglash, to'g'ri qaror qabul qilish va samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Jamoaviy tadbirlar esa hamkorlik, o'zaro yordam va jamoada ishlash malakalarini mustahkamlaydi.

Oilaviy topshiriqlar ota-onalarning tarbiyaviy jarayondagi ishtirokini kuchaytirib, o'quvchilarda ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlaydi. Shuningdek, otalar uchun tashkil etiladigan seminar va treninglar ularning pedagogik savodxonligini oshirib, maktab bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Maktab va oila hamkorligining samaradorligi ta'lim-tarbiya jarayonida yaratiladigan muayyan pedagogik shart-sharoitlarga bog'liq bo'lib, ular hamkorlikning mazmuni va natijadorligini belgilaydi. Pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan muhit o'quvchilarda shaxsiy qadriyatlarning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Hamkorlikning muhim shartlaridan biri o'zaro ishonch va hurmatning mavjudligidir. Bunday munosabat pedagog va ota-onalar o'rtasida ochiq muloqotni ta'minlab, tarbiyaviy muammolarni birgalikda hal etishga imkon yaratadi. Natijada bola o'zini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlangan shaxs sifatida his qiladi.

Tarbiyaviy maqsad va talablarning uyg'unligi hamkorlik samaradorligini oshiradi. Maktab va oiladagi yondashuvlar mos kelganda, tarbiyaviy ta'sirlar izchil bo'ladi, aks holda o'quvchida qarama-qarshi qarashlar yuzaga keladi. Shu bois pedagoglar va ota-onalar yagona yondashuv asosida faoliyat yuritishi zarur.

Shuningdek, pedagog va ota-onalarning mas'uliyatli yondashuvi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan tarbiya muhim pedagogik shart-sharoit hisoblanadi. Ushbu omillar o'quvchilarda ma'naviy yetuklik, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Amaliy tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich ta'lim jarayonida maktab va oila hamkorligi tizimli va maqsadli tashkil etilganda o'quvchilarda shaxsiy qadriyatlar samarali shakllanadi. Tajribalar umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida pedagoglar, ota-onalar va o'quvchilarning faol ishtirokida olib borildi.

“Ota-onam bilan bir kun” loyihasi ota-onalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ishtirokini kuchaytirib, o'quvchilarda mas'uliyat va ongli xulq-atvorni rivojlantirdi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, ota-onalarning aksariyati farzandlarining maktab hayotiga qiziqishi oshganini qayd etdi. “Milliy qadriyatlar haftaligi” doirasida tashkil etilgan tadbirlar o'quvchilarda milliy g'urur, Vatanga muhabbat va o'zaro hurmat tuyg'ularini mustahkamladi. Oilaviy va jamoaviy tadbirlar esa ijtimoiy faollik, hamkorlik va muloqot ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qildi.

Oilaviy topshiriqlar orqali o'quvchilar o'z oilasiga nisbatan hurmat va mas'uliyat hissini chuqurroq anglab, axloqiy xulq-atvorida ijobiy o'zgarishlar

namoyon etdi. Umuman olganda, amaliy tajribalar maktab va oila hamkorligiga asoslangan tarbiyaviy faoliyatning yuqori pedagogik samaradorligini tasdiqladi.

Xulosa qilib aytsak, boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsiy qadriyatlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonda maktab va oila hamkorligi yetakchi pedagogik omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari tarbiyaviy ta'sirlarning izchilligi, maqsadlar uyg'unligi va pedagogik yondashuvlarning birligi o'quvchilarda barqaror shaxsiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Shuningdek, amaliy tajribalar maktab va oila hamkorligini ilmiy asoslangan metodika asosida rivojlantirish boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli va faol shaxs sifatida tarbiyalashda samarali ekanligini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. Pedagogik hamkorlik asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 168 b.
2. Yo'ldoshev J.G'. Pedagogik texnologiyalar. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 240 b.
3. Ismoilova Z.K. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2017. – 192 b.
4. Qodirova F.R. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. Darslik. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – 220 b.
5. Abdullina O.A. Pedagogik mahorat asoslari. O'quv qo'llanma. – Moskva: Akademiya, 2010. – 256 p.